

FUQAROLIK JAMIYATIDA RAQAMLASHISH JARAYONI HAMDA UNDA INSON OMILINING O'RNI.

XUDAYOROVA ZEBUNISO OTANAZAROVNA

QK xizmatchisi, Chirchiq OTQMBYU Gumanitar
fanlar kafedrası katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada Konstitutsiyamizda kafolatlangan fuqarolik jamiyati hamda unda yashab, har sohada rivojlanib taraqqiy topayotgan insonlar hamda inson omilining raqamlashish sharoiti davrida fuqarolik jamiyati rivojiga qo'shgan hissasi haqida so'z boradi. Hukumatimizning bugungi kunda ijtimoiy sohada amalga oshirayotgan ochiqlik siyosati va keng qamrovli insonparvarlik g'oyalari asoslangan islohatlari ham statistik materiallar asosida yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, fuqarolik jamiyati, qonun, inson omili, raqamlashish, inson kapitali, Taraqqiyot strategiyasi, Harakatlar strategiyasi.

Jahonda inson kapitali muammosi har bir davlatning taqdirini belgilaydigan, zamonaviy dunyo taraqqiyotining dinamikasi, insonning innovatsion, ijodiy faoliyati, fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishini belgilovchi omil sifatida dolzarblik kasb etmoqda. BMTning Taraqqiyot dasturi, Inson kapitali indeksi, Jahon bankining "Inson kapitalini rivojlantirish" loyihasi ham inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bugungi global axborot makonida uni bevosita eng afzal va eng qimmatli resursga aylantirmoqda. Shu ma'noda inson kapitalining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni bilan bog'liq uning namoyon bo'lish xususiyatlari, uni shakllantirish va rivojlantirish omillari, mezon hamda mexanizmlarini aniqlash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Insoniyat yaralibdiki unda insonlar jamoa bo'lib, jamiyat ko'rinishida yashaydi. Va o'z-o'zidan bu jamiyatlarda tinch va to'laqonli erkin yashashning kafolatlari sanalmish qoida va qonunlar majmuiga talab vujudga keladi. Shunday talablar asosida kishilik jamiyatida dastlabki qonunlar majmui mil.av. II ming yillikda Old Osiyoda yaralgan edi, huddi shunday bizning mamlakatimiz ham eramizdan oldingi

davrlardayoq diniy ko‘rinishdagi qat’iy belgilangan qonunlarga, ya’ni “Avesto”ga ega bo‘lgan.

Inson dunyoga kelishi bilanoq unda yashash huquqiga egalik shakllanganidek erkinlik, vijdon va so‘z erkinligiga bo‘lgan extiyoj asosida ushbu talablarni qondirish uchun ham huquqiy asoslarga bo‘lgan talab ham ortib boraveradi. Ushbu huquqlar avvalo, insonni jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash bilan bir qatorda, unga ushbu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish ma’suliyatini ham yuklaydi albatta. Qonunlarga bo‘ysunadigan, o‘z-o‘zini hurmat qiladigan Fuqarolik jamiyati bu borada hal qiluv masala hisoblanadi.

Jahon ilm-fanida bugungi kunda inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-nazariy, amaliy va fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, inson kapitali konsepsiyasi, uni shakllantirish mezonlari, rivojlantirish omillari, inson kapitalining tuzilishi va turlari hamda uning jamiyat modernizatsiyasi va barqaror rivojlanish omili ekanligi bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar shular jumlasidandir. Ma’lumki, rivojlangan davlatlarda inson kapitali asosiy boylik, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy mezoni hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ham, inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish, uning ijodiy fazilatlari va qobiliyatlari, inson kapitaliga sarmoya kiritish masalasi dunyo fanining asosiy va markaziy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu esa inson kapitalining mamlakatni barqaror rivojlanishidagi ahamiyatiga doir tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda.

Mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirishda “davlat – inson uchun” tamoyili asosida ishlash tizimini takomillashtirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, “adolatli ijtimoiy siyosat, inson kapitalini rivojlantirish”¹ olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Shu nuqtai nazardan,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/5841063#5844198>

bugungi globallashuv jarayonlarida inson kapitali va uning tarkibiy unsurlarini baholash tizimini kengaytirish, respublikada inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha imkoniyatlarni aniqlash mexanizmlarini, ijtimoiy qonuniyatlarini, usul va vositalarini tadqiq qilish ilmiy jamoatchilikning muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 18-sentabrdagi PF-5544-son "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 26- martda.gi PF-5975-son "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari va 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3856-son "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

G'arb mamlakatlarida inson kapitalidan turli sohalar doirasida samarali foydalanish asoslari atroflicha o'rganilgan. O'tgan asrning o'rtalarida g'arb olimlaridan G.Bekker, T.Shuls, M.Bloug, Dj.Minser, S.Polachek asarlarida va ilmiy tadqiqot ishlarida inson kapitali konsepsiyasining nazariy va uslubiy asoslari shakllantirilgan. Shuningdek, inson kapitalini iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omil sifatida - N.Menkyu, D.Romer, D.Veyl, Dj.Benxabib, M.Shpigel, inson kapitalini ta'lim orqali baholash - D.Koen, M.Soto, V.Luts, A.Gujon larning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlarida ham inson kapitalidan ratsional foydalanish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda uning samarali jihatlarini asoslashga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, innovatsion rivojlanishning ustuvor omili sifatida makro-, mezo- va mikro-darajada inson kapitalining rivojlanishi va amal qilishining turli jihatlarini - L.G.Simkina, A.V.Koritskiy, Y.A.Korchagin, I.V.Skoblyakova,

V.Birbkov, S.Kovalenok, Z.R.Xabibullina, A.Podberezkin singari olimlar tomonidan o'rganilgan.

O'zbekistonda ham so'ngi yillarda inson kapitalidan oqilona foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish ishlari tobora jadallashib bormoqda va bir qancha olimlar bu muammoni o'rganishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Xususan, inson kapitalini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlarini akademiklar R.A.Ubaydullayeva, K.X.Abduraxmonov, S.S.G'ulomov, Sh.G.Akramovalar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, inson kapitalining nazariy-metodologik asoslari va ijtimoiy-falsafiy jihatlar ham ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, M.Abdullayeva ta'limda inson kapitali muammosi, Q.Nazarov milliy qadriyatlarning inson kapitali rivojlantirishdagi ahamiyati, F.Yuldasheva globallashuv jarayonida ma'naviy qadriyatlar, G.G'affarova inson kapitalini rivojlantirishda raqamlashtirish va milliy qadriyatlarning ahamiyati², G.Jalalova bilim va ilmiy bilimlar transformatsiyasi inson kapitalini shakllantirish omili³, M.Sharipov intellektual inson kapitalining mohiyati va xususiyatlari, sog'liq kapitali kategoriyasi, uning turlari, manbalarini⁴ falsafiy tahlil etishgan.

Mazkur tadqiqotlar O'zbekistonda inson kapitalini shakllantirish omillari, ijtimoiy rivojlanishda inson kapitalining ahamiyati masalalariga ulkan hissa qo'shgan. Biroq zamonaviy sharoitlarda inson kapitali tushunchasining falsafiy mohiyati, uni rivojlantiruvchi omillar, yangilanayotgan O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari hamda ijtimoiy-falsafiy asoslari, mavjud muammolar va ularning tahliliga qaratilgan maxsus tadqiqot ishi olib borilmagan.

Bu o'zgarishlarning barisi bir kunda paydo bo'lib qolmagan albatta, aynan manashu yangiliklarni hayotimizga tadbiq etish uchun dasturulamal bo'lib hizmat

² Gaffarova G.G. Human capital as the basis of society development // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. –USA, Harrisburg, 2021. №04(96), -R.455-460; G'affarova G.G., Polvonova S. Inson kapitalini rivojlantirishda milliy qadriyatlarning ahamiyati // Academic reserch in educational sciences, 2021. 2(5), -B.779-786.;

³ Jalalova G.O. Ilmiy bilimlardagi transformatsiya jarayonlarining epistemologik mohiyati. Diss.fals.fan.doktori (PnD). - Toshkent, 2018.

⁴ Sharipov M. Intellektual inson kapitalining mohiyati, manbalari va xususiyatlari // ARES, Academic Research in educational sciences. Vol.2, Issue 6, 2021. –B.694-703.; Sharipov M. Sog'liq kapitali kategoriyasi, uning turlari, manbalari va ahamiyati // ARES, Academic Research in educational sciences. Vol.2, Issue 6, 2021. –B.710-719.

qiladigan mamlakatimizda tub islohotlarni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi davlat dasturlaridan dastlabkilaridan biri bu – Harakatlar strategiyasidir.

Harakatlar strategiyasi mamlakatimizni 2017 – 2021 – yillarda rivojlantirishning beshta yo'nalishini o'zida mujassamlashtiradi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, havfsizlik va huquq – tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun zarur shart – sharoitlar yaratdi⁵. Zero ushbu strategiya ham mamlakatimiz hayotida yangi bosqich bo'layotgan ochiqlik, shaffoflik va oshkoralik muhitida bo'y ko'rsata borayotgan so'z erkinligining kafolati bo'lib, “Yangi O'zbekiston” g'oyasining tamal toshlaridan hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari ham yaqinda “ Yangi O'zbekiston ” gazetasining bosh muharriri savollariga javob berganida: “Yangi O'zbekiston - demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalq uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir ”⁶,

Ushbu islohotlar qatoriga albatta Taraqqiyot strategiyasini kiritmaslik mutlaqo mumkin emasdir. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimizni rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida avvalgi strategiyamizdan farqli ravishda beshta emas, yettita ustuvor yo'nalishni belgilab berdilar va bu strategiyada albatta ma'naviyat masalasiga juda katta e'tibor va urg'u berildi. Ushbu Davlat dasturining asosiy ustuvor yo'nalishlari quyidagilardir;

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

⁵ 2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi To'g'risida PF-60 , [https:// lex.uz](https://lex.uz). 28.01.2022. –B.1

⁶ Mirziyoyev Sh.M. ning Yangi O'zbekiston gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovga bergan intervyusi .

- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.⁷

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat MirziyoyevMiromonovich ayni shu maqsadlarni ko'zlagan holda jamiyatimizda ochiq-oshkoralik va konstitutsiyaviy prinsiplarga asoslangan erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun jon kuydirib qilayotgan harakatlarining samarasi o'laroq keyingi 10 yilliklar ichida xalqimizning nafaqat so'z, e'tiqod, vijdon erkinligi amalda yanada o'z ifodasini topa bormoqda, shu bilan birga fuqarolarimizning huquqiy savodxonligi ham kundan- kun yuksalmoqda. Bularni barini kundalik hayotimizda kuzatmoqdamiz. Chunonchi endi har bir inson o'z fikrini erkin bayon qilishi barobarida hukumat vakillari va amaldorlarning hatti – harakatlarini kuzatish ,tahlil qilish, baholash kerak bo'lsa ular yuritayotgan siyosatdan norozi bo'lsa e'tiroz va takliflar kiritish, yuqori turuvchi organlarga shikoyat qilish jarayonlari ham ancha liberallashtirildi va soddalashtirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: "O'zbekiston", 2023 –B.55
2. 2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Tarqqiyot Strategiyasi To'g'risida PF-60 , [https:// lex.uz](https://lex.uz). 28.01.2022. –B.1
3. Mirziyoyev Sh.M. ning Yangi O'zbekiston gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovga bergan intervyusi .

⁷ 2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Tarakkiyot Strategiyasi To'g'risida PF-60, [https:// lex.uz](https://lex.uz). 28.01.2022. -B-1

4. Nosirxo'jayev S.H. Ma'naviyat asoslari//Nosirxo'jayev S.H.,Lafasov M.F.,A'zamxo'jayeva S. –T.:”TURON-IQBOL”, 2010 –B.63
5. Gaffarova G.G. Human capital as the basis of society development // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. –USA, Harrisburg, 2021. №04(96), -R.455-460; G'affarova G.G', Polvonova S. Inson kapitalini rivojlantirishda milliy qadriyatlarning ahamiyati // Academic reserch in educational sciences, 2021. 2(5), - B.779-786.;
6. Jalalova G.O. Ilmiy bilimlardagi transformatsiya jarayonlarining epistemologik mohiyati. Diss.fals.fan.doktori (PnD). - Toshkent, 2018.
7. Sharipov M. Intellektual inson kapitalining mohiyati, manbalari va xususiyatlari // ARES, Academic Research in educational sciences. Vol.2, Issue 6, 2021. –B.694-703.;
- Sharipov M. Sog'liq kapitali kategoriyasi, uning turlari, manbalari va ahamiyati // ARES, Academic Research in educational sciences. Vol.2, Issue 6, 2021. –B.710-719.